

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Qishloq xo‘jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Limonni ochiq maydonlarda yetishtirishga moslashgan, sovuqqa va qurg‘oqchilikka chidamli yangi navlarini yaratish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - O‘simliklar genetik resurslari ilmiy tadqiqot instituti kolleksiyasida mavjud limon navlari va shakllari o‘rganiladi va sovuqqa chidamli limon genotiplari saralanadi; - tanlab olingan sovuqqa va qurg‘oqchilikka chidamli shakllarni tanlash ishlarini olib boriladi va ular asosida yangi navlar yaratiladi; - Yangi yaratilgan navlar ochiq maydonlarda turli agroekologik zonalarda sinaladi; - Yangi navlar sifat ko‘rsatkichlari, moslashuvchanlik bo‘yicha baholanadi; - Ilmiy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot natijalari Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizim tashkilotlarida sinovlardan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Qishloq xo‘jaligi vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda, jumladan <i>Scopus / Web of Science</i> ma‘lumotlar bazasida indekslanadigan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.